



Global iqlim o'zgarishi: mahalliy darajadagi harakatlar

Baxtiyor Shoirbek Oybek o'g'li

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

Xalqaro huquq fakulteti 1-kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada global iqlim o'zgarishining mahalliy darajada ta'sirini kamaytirish va unga moslashish yo'llari tahlil qilinadi. Unda iqlim o'zgarishining sabab va oqibatlari qisqacha yoritilib, mahalliy darajadagi harakatlarning ahamiyati ta'kidlanadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida bayon etilgan fuqarolarning ekologik huquq va burchlari, barqaror rivojlanish, yashil texnologiyalarni joriy etish, energiya samaradorligini oshirish hamda aholini xabardor qilish orqali iqlim muammolariga qarshi kurashish usullari muhokama qilinadi. Mahalliy hamjamiyatlar va davlatning o'zaro hamkorligi orqali amalga oshiriladigan harakatlar iqlim muammolarini hal etishda hal qiluvchi omil sifatida ko'rib chiqiladi. Maqola iqlim o'zgarishiga qarshi kurashda mahalliy chora-tadbirlarning ahamiyatini ochib beradi.

Kalit so'zlar: issiqxona, yoqilg'i, iqlim o'zgarishi, energiya manbalari, yashil makon, elektr stansiya, tabiiy-resurs

Аннотация: В данной статье рассматриваются пути смягчения влияния глобального изменения климата на местном уровне и адаптации к нему. Кратко освещены причины и последствия изменения климата, а также подчеркнута значимость действий на местном уровне. В частности, обсуждаются методы борьбы с климатическими проблемами через устойчивое развитие, внедрение зелёных технологий, повышение энергоэффективности и информирование населения. Рассматривается ключевая роль взаимодействия местных сообществ и государства в реализации таких мер. Статья раскрывает важность локальных мер в борьбе с изменением климата.

Ключевые слова: парниковый эффект, топливо, изменение климата, энергетические ресурсы, зелёная зона, электростанция, природные ресурсы.

Annotation: This article analyzes ways to mitigate the impact of global climate change at the local level and adapt to its effects. It briefly highlights the causes and consequences of climate change and emphasizes the importance of actions at the local level. In particular, the article discusses methods to address climate issues through sustainable development, the implementation of green technologies, improving energy efficiency, and raising public awareness. The role of collaboration between local communities and the state is considered a decisive factor in tackling climate problems. The article highlights the significance of local measures in combating climate change.

Keywords: greenhouse effect, fuel, climate change, energy resources, green space, power plant, natural resources.





Hukumatlararo ekspertlar guruhi Yer ilgari hisob-kitob qilinganidan ko'ra tezroq isib borayotganini ma'lum qilishmoqda. Dunyo bo'yicha o'rtacha harorat 1,1 darajaga ko'tarilgan. Bu esa 2040 yilga borib o'rtacha harorat 1,5 darajaga oshishini bildiradi. Issiq to'lqinlar, kuchli shamollar, qurg'oqchilik, suv toshqinlari va yong'inlar yanada ko'proq sodir bo'la boshladi, muzliklar erishi yanada kuchaydi. Ayniqsa, joriy yilda bu jarayon judayam tezlashganini kuzatishimiz mumkin. Iqlim o'zgarishi bo'yicha O'zbekiston tomonidan ko'riladigan choralar va harakatlarni, undan tashqari ekologiyaga oid yangi normalarning O'zbekiston Respublikasining Bosh qonuni bo'lgan Konstitutsiyada tadbiq etilgani bu albatta O'zbekiston Respublikasining global iqlim o'zgarishi va ekologik tizimga befarq emasligining yaqqol namunasidir. (ma'lumot o'rnida, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi IX bob 49-moddasi hamda XI bob 62-moddasi ekologik huquq va burchlarga bag'ishlangan). Bugun iqlim o'zgarishi insoniyat oldida turgan eng jiddiy muammo ekani jahon hamjamiyati tomonidan tan olingan. Iqlim o'zgarishi inson hayotining barcha sohalariga ta'sir ko'rsatmoqda va iqlim o'zgarishining salbiy oqibatlarini oldini olish hamda yangi hayot sharoitlariga moslashish bo'yicha kechiktirilmaydigan choralar ko'rishni talab etmoqda. Zamonaviy ilm-fan insonning avvalambor qazib olinadigan yoqilg'ini yondirish natijasida issiqxona gazlarining chiqarilishi bilan bog'liq xo'jalik faoliyati iqlimga sezilarli ta'sir ko'rsatayotganini tasdiqlovchi jiddiy asoslar taqdim qilmoqda. O'zbekistonda 1880 yildan to davrda o'rtacha yillik harorat 1,6 daraja (13, 2 dan 14,8 °S gacha) oshdi, bu global miqyosda kuzatilayotgan o'rtacha sur'atlardan yuqoridir. Mutaxassislarning prognozlariga ko'ra 2030-2050 yillarda mintaqada havo harorati yana 1,5-3°Sga ko'tarilishi mumkin. Havo haroratining ayniqsa Orolbo'yida ko'tarilishi kutilmoqda, bu esa mahalliy iqlim o'zgarishlari bilan yanada og'irlashadi. TOSHKENT: 2022 yil 2 dekabr – Markaziy Osiyoda havo harorati o'rtacha global ko'rsatkichdan ko'ra tezroq sur'atda ko'tarilmoqda. Oxirgi 30 yilda o'rtacha yillik harorat 0,5 darajaga ko'tarilgan bo'lsa, 2085 yilga kelib 2,0 - 5,7 darajagacha ko'tarilishi kutilmoqda. Ekstremal ob-havo hodisalari va tabiiy ofatlarning takrorlanish darajasi va tezligi jismoniy xavfsizlik, eng muhim infratuzilma ob'ektlari hamda sog'liqni saqlash va ta'lim xizmatlaridan foydalanish imkoniyatiga tahdid solmoqda. [1, 1-p] Global iqlim o'zgarishi va mamlakat tabiiy-resurs kompleksining ana shu o'zgarishlarga ta'sirchanligi izchil iqlimiy siyosatni shakllantirish zaruriyatini belgilaydi. BMTning Iqlim o'zgarishi to'g'risidagi Doiraviy konvensiyasi (BMT IO'DK) iqlim o'zgarishiga qarshi kurash bo'yicha xalqaro harakatlarning asosi bo'lib, atmosferadagi issiqxona gazlari konsentratsiyasini iqlimiy tizimga xavfli antropogen ta'sir ko'rsatishiga yo'l qo'ymaydigan darajada barqarorlashtirishga qaratilgan. O'zbekiston BMT IO'DKga 1993 yilda qo'shildi. O'zbekistonda BMT IO'DKni amalga oshirish bo'yicha harakatlarni muvofiqlashtirish O'zbekiston Respublikasi Gidrometeorologiya xizmati markazi zimmasiga yuklatilgan.[2, 1-p] 2017 yil 19 aprelda O'zbekiston Parij bitimini imzoladi, 2018 yil 2





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

noyabrda ratifikatsiya qildi. O'zbekiston Respublikasining O'RQ-491-son "Parij bitimini ratifikatsiya qilish to'g'risida"gi Qonuni 2018 yil 2 oktabrda qabul qilindi. Bitim O'zbekiston uchun 2018 yil 9 dekabrda kuchga kirdi.

Parij bitimining maqsadi - IO'DK amalga oshirilishini faollashtirish, global o'rtacha haroratning industriallashtirishgacha (1750y.) bo'lgan darajaga nisbatan 2°S ga saqlab turish hamda haroratning 1,5°S gacha o'sishini cheklashga harakat qilishdan iborat, bu 2050 yilga kelib iqlim o'zgarishi global ajratmalarini 40-70%ga kamaytirishni va 2100 yilga kelib uning 0 yoki manfiy ko'rsatkichga yetkazishni talab etadi. Parij bitimini imzolashning zaruriy sharti – mamlakatning 2030 yilga qadar erishmoqchi bo'lgan issiqxona gazlari tashlamalarini kamaytirishga oid Mo'ljallanayotgan milliy miqyosda belgilanadigan hissa (MMBH)ni tayyorlash va BMT IO'DK kotibiyatiga taqdim etish. Milliy miqyosda belgilanadigan hissa (MBH) Parij bitimining global maqsadlariga hissa qo'shish uchun milliy harakatlarni amalga oshirishni asosiy mexanizmidir. Parij bitimi bo'yicha O'zbekistonning asosiy majburiyati - 2030 yilga qadar issiqxona gazlarining yalpi ichki mahsulot birligiga nisbatan solishtirma ajratmalarini 2010 yildagi darajadan 10%ga qisqartirish. O'zbekiston MMBH 2030 yilgacha bo'lgan davrda iqlim o'zgarishini yumshatish va unga moslashish choralari va harakatlarini o'z ichiga oladi. Mo'ljallanayotgan milliy miqyosda belgilanadigan hissa (MMBH)ni amalga oshirish faol olib borilyapti va O'zbekiston iqtisodiyoti rivojlanishiga katta hissa qo'shmoqda. [3, 1-p] O'zbekiston Konvensiya va Parij bitimi Tomoni sifatida iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarida issiqxona gazlari tashlamalarini qisqartirishga yo'naltirilgan izchil siyosatni amalga oshirmoqda. Hukumat tomonidan iqlim o'zgarishi sohasida harakatlarni tartibga solish va choralarni amalga oshirish yuzasidan qator hujjatlar qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 4 oktabrdagi PQ-4477-sonli qaroriga muvofiq, O'zgidromet tomonidan tegishli vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda tayorlangan "2019-2030 yillar davrida O'zbekiston Respublikasining «Yashil» iqtisodiyotga o'tish strategiyasi" tasdiqlandi va ushbu Strategiyaning Harakatlar rejasi (Yo'l xaritasi)ga muvofiq, har bir vazirlik va idoralarga iqlim o'zgarishini yumshatish yoki unga moslashish bo'yicha vazifalar yuklatilgan.

"Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to'g'risida" va "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunlarining qabul qilinishi O'zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etishni tezlashtirish (quyosh va shamol elektr stansiyalarni qurish) uchun huquqiy va me'yoriy asos yaratdi. BMT IO'DK va Parij bitimi bo'yicha majburiyatlarni bajarish doirasida issiqxona gazlar tashlamalarini kamaytirish va iqlim o'zgarishiga moslashishning ustuvor yo'nalishlari mamlakatning tegishli strategik va tarmoq rejalari va dasturlarida aks ettirilgan. O'zbekiston Respublikasining BMT IO'DK va Parij bitimidagi ishtiroki rivojlanayotgan





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

mamlakat sifatida iqlimni moliyalashtirish jamg'armalaridan mablag' jalb qilishga imkon beradi, shu jumladan, Yashil iqlim fondi (YaIF), Adaptatsiya jamg'armasi (AJ), Global ekologik jamg'armasi (GEJ) va boshqalar. Global ekologik jamg'arma (GEJ), BMT Taraqqiyot dasturi (BMT TD), BMT Atrof-muhit dasturi (YuNEP) va boshqa halqaro tashkilotlarning moliyaviy ko'magi yordamida mamlakatning iqlim o'zgarishini yumshatish va unga moslashish bo'yicha majburiyatlarini bajarish uchun ko'plab loyihalar muvaffaqiyatli amalga oshirildi va hozirgi paytda amalga oshirilmoqda.[4, 1-p] Iqlim o'zgarishi va tabiiy ofatlar xavfiga nisbatan milliy harakatlar rejasini ishlab chiqish hamda samarali amalga oshirishni tashkil etish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida" 2022-yil 2-dekabrda PQ-436-son qarori ijrosini ta'minlash, shuningdek, tabiiy ofatlar xavfini kamaytirish va iqlim o'zgarishiga chidamlilikni oshirish bo'yicha chora-tadbirlar samaradorligini oshirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi: 1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrda PQ-436-son qarori bilan tasdiqlangan 2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasida "yashil" iqtisodiyotga o'tish va "yashil" o'sishni ta'minlash bo'yicha harakatlar rejasining 10-bandida iqlim o'zgarishi va tabiiy ofatlar xavfiga nisbatan milliy javob choralari ishlab chiqish va amalga oshirishning samarali normativ-huquqiy va institutsional bazasini mustahkamlash nazarda tutilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin. 2. 2023 — 2030-yillarda tabiiy ofatlar xavfini kamaytirish va iqlim o'zgarishiga chidamlilikni oshirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasining milliy harakatlar rejasini (keyingi o'rinlarda — Milliy harakatlar rejasini) 1-ildovaga muvofiq; 2023 — 2030-yillarda tabiiy ofatlar va iqlim o'zgarishiga chidamlilikni oshirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasining milliy harakatlar rejasini amalga oshirish bo'yicha "yo'l xaritasi" (keyingi o'rinlarda — "yo'l xaritasi") 2-ildovaga muvofiq tasdiqlansin. 3. Quyidagilar Milliy harakatlar rejasini amalga oshirish doirasida ustuvor yo'nalishlar etib belgilansin: tabiiy ofatlar xavfini kamaytirish va iqlim o'zgarishiga chidamlilikni oshirishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish aholining tabiiy ofatlar xavfini kamaytirish va iqlim o'zgarishiga chidamlilikni oshirish borasidagi bilim va tajribalarini shakllantirish;

tabiiy ofatlar xavfini kamaytirish va iqlim o'zgarishiga chidamlilikni oshirish tadbirlarini moliyalashtirishni tashkil etish; tabiiy ofatlar ro'y berganda harakat qilishga tayyorlik darajasini oshirish. [5, 1-p] Yer sayyorasidagi o'rtacha harorat qanchaga ko'tarildi? 1 °C dan ozgina ko'proqqa - bu aslida siz tasavvur qilayotgandan-da yomonroq ko'rsatkich. 1980 yildan, ya'ni ma'lumotlar global darajada qayd etilish boshlangandan beri va 2017 yil holatiga ko'ra, solishtiradigan bo'lsak, Yer sayyorasining harorati 1 °C ga oshgan. Bu raqam sezilarli emasdek ko'rinishi mumkin, ammo unga sayyora yuzasidagi o'rtacha ko'rsatkich sifatida qaraydigan bo'lsak, o'zgarish katta ekanligini, oqibatda muzliklar eriyotganini va dengizlar darajasining keskin





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

ko'tarilayotganini ko'rishimiz mumkin. Agar issiqxona gazlarining tarqalishi to'xtamasa, olimlar Yer sayyorasi o'rtacha haroratining 4°C ga oshishini prognoz qilishmoqda. Bu esa quruqlikning katta qismini inson hayoti uchun yaroqsiz holga keltirib qo'yadi. Issiqxona effekti o'zi nima va u iqlimga qanday ta'sir qiladi? Bunga ishonish qiyin, lekin insoniyat issiqxona effekti haqida bir asrdan ko'proq vaqt davomida xabardor. XIX asrda olimlar ayrim gazlarning Yerdan chiqadigan issiqlikni ushlab turishini va ularning yordamisiz bu issiqlik koinotga chiqib ketishini aniqlashdi. Bu jarayonda asosiy rol ni karbonat angidrid o'ynaydi: usiz sayyora muzlagan cho'lga aylangan bo'lar edi. 1896 yilda issiqxona gazlari konsentratsiyasining oshishi sababli sayyoradagi haroratning oshishi haqida ilk bor bashorat qilingan. Bugungi kunda ularning atmosferadagi soni sanoat inqilobidan oldingi davrga nisbatan 43% ga oshdi va Yerning o'rtacha harorati olimlar bashorat qilgan qiymatgacha oshdi. Atmosferadagi karbonat angidrid konsentratsiyasining oshayotgani uchun aynan inson javobgar deya ta'kidlash mumkinmi? Albatta. Sanoat issiqxona gazlari tarqalishining ulushini aniqlash uchun radioaktiv nurlanishdan foydalanilgan tadqiqotlar kabi ishonchli dalillar mavjud. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ortiqcha gaz inson faoliyatining natijasidir. Karbonat angidrid darajasi har doim tabiiy ravishda ko'tarilgan va tushib ketgan, ammo bu o'zgarishlar minglab yillar davom etgan. Geologlarning ta'kidlashicha, odamlar iqtisodiy faoliyat davomida karbonat angidridni atmosferaga tabiatdan ko'ra ko'proq intensiv ravishda chiqaradi. Nega insonlar iqlim o'zgarishi faktini rad etishadi? Asosiy sabab — ideologiya. Ba'zi konservatorlar bozorga asoslangan iqlim o'zgarishi siyosatini muhokama qilish o'rniga, ilmiy dalillarga qarshi chiqish orqali global isishni inkor qilmoqdalar. AQShning sobiq prezidenti Tramp bir necha bor olimlar jamoatchilikni aldash uchun butun dunyo bo'ylab yolg'on o'ylab topilayotganini yoki global isish Amerika sanoatini beqarorlashtirish uchun Xitoy tomonidan o'ylab topilganini ta'kidlagan. Skeptiklarning argumentlari shu qadar shubhali bo'lib qoldiki, hatto neft va ko'mir ishlab chiqaruvchi kompaniyalar ham bunday munozaralardan o'zlarini chetlab o'tishdi, vaholanki, ularning ba'zilar hali ham shunday qarashdagi siyosatchilarning saylov kampaniyasini moliyalashtirmoqda.[6, 1-p]

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://kun.uz/news/2021/08/12/iqlim-ozgarishi-va-insoniyat-global-isish-natijasida-yuzaga-kelishi-mumkin-bolgan-tahdidlar>
2. <https://www.undp.org/uz/uzbekistan/press-releases/markaziy-osiyo-davlatlari-iqlim-ozgarishi-bilan-bogliq-xatarlarga-qarshi-kurashish-uchun-qoshimcha-choralar-korishi-lozim>
3. <https://hydromet.uz/uz/node/609>
4. <https://www.gazeta.uz/oz/2022/08/01/climate-change/>

